

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI KURSIDA FAVQULODDA
VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH
YO'NALISHINING O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Podpolkovnik Qo'chqarov Ilxomjon Abdubasirovich

Farg'ona viloyati

Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu tezisda hayot xavfsizligi kursida amaliyot organlarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik yo'nalishlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Hayot faoliyati xavfsizligi, metod, o'qitish, amaliyot organlari.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali uning samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Elektron ta'lim" milliy jarayoni barpo etildi. U mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilgan bo'lib, o'qitish jarayonida o'qituvchining shaxsan ishtirok etishga zaruriyat qolmaydi, ta'lim oluvchilar barcha topshiriqlarni mustaqil bajarishga, o'quv jarayonini takomillashtirishga imkoniyat yaratiladi.

Amaliyot organlariga hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi fani bo'yicha yaratiladigan multimediali o'rgatuvchi majmua kasbiy faoliyatga tayyorlashning axborot – metodik vositasi sifatida quyidagi asoslar bo'yicha tasniflanishi mumkin [1]:

1) tizimlashtirilgan nazariy bilimlarni o'z ichiga oladigan hamda amaliyot organlarida umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida fan o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan va egallanish lozim bo'lgan faoliyat turlarini belgilaydigan o'quv-nazariy mul'timediyali o'rgatuvchi majmualar. Ular darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi, alohida ma'ruzalar kabi ko'rinishlarda taqdim etilishi mumkin;

2) alohida mezonlar bo'yicha tartiblangan va interfaol shaklda bayon etilgan, shuningdek mantiqiylik va bayonning izchilligi bilan farqlanuvchi axborotni

o'z ichiga oladigan o'quv-amaliy multimediali o'rgatuvchi majmua. Bunday majmualar, praktikumlar, masala va mashqlar to'plami, al'bomlar, atlaslar va boshqa ko'rinishida taqdim etilishi mumkin;

3) o'quv fanini mustaqil o'rganish uchun tartiblangan o'quv materiallarini, interfaol shaklda bayon etiladigan bilimlarni mustahkamlash metodikasini o'z ichiga oladigan o'quv-metodik mul'timediali o'rgatuvchi majmualar. Ushbu turdagi mul'timediyali o'rgatuvchi majmua uslubiy tavsiyalar, o'quv-ma'lumotnomali nashrlar, atamalar lug'atlari, o'quv-bibliografik ma'lumotnomalar kabi ko'rinishlarda taqdim etilishi mumkin.

Komponentlik tamoyili hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi fanini o'qitish jarayonida umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan va u nafaqat davlat ta'lim standartlari, balki ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyasining tashkiletuvchilaridan biri sifatida, uni qayta qurish hisobiga modernizatsiyalash bilan shartlanilgan.

Tayyorlanayotgan amaliyot organlarida hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi sohasiga oid kompetensiyalarni shakllantirish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni, shuningdek ishlab chiqarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan turli xil shikastlanishlardan ogohlantirishni, jaroxatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish va ishlarni xavfsiz metodlar bilan tashkil etishni nazarda tutadi.

Masalan, elektr xavfsizligi va elektrmoslamalari hamda yerga ulash moslamalari bo'yicha multimediali o'rgatuvchi majmua mazmuniga umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni taminlovchi quyidagi o'quv materiallari kiritilgan [3]:

- elektr xavfsizligi asoslari (fikrlash madaniyatini, umumlashtirishga qobiliyatlikni, taxlil qilish, maqsadni qo'yish va unga intilish yo'llarini egallash, nostandart vaziyatlarda tashkiliy-boshqarish yechimlarini topishga qobiliyatlikni va ular uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorlik);
- yerga ulash moslamalarini montaj qilish bo'yicha operatsiyalar (montaj qilish texnologiyalarini bilish, sozlash, konstruksiyalarni sinash va foydalanishga

topshirish, muhandislik tizimlari va qurilish ob'ektlari jihozlari, korxonada chiqaradigan mahsulot namunalarini bilish; jihozlar va texnik ta'minot vositalarini tajribaviy tekshirish metodlarini egallash; qurilish ob'ektlari, jihozlari, texnik holatni va qoldiq resursni baholash metodlarini egallash);

- elektr moslamalarini yerga ulashni hisoblash metodikasi (tabiiy fanlarning asosiy qonunlarini, matematik modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqot metodlarini qo'llash)

Namunaviy texnologik xarita nafaqat me'yorlar va qoidalar, sanitariya-gigienik me'yorlar qoidalari to'plamini balki zamonaviy texnika fanlarining fundamental tushunchalari, qonunlari va nazariyalariga muvofiq, materiallarning berilgan tizimi va xususiyatlarini shakllantirish usullari, ularning sifat ko'rsatkichlarini baholash metodlari, binolarni elektr ta'minoti tizimlarini rivojlantirish istiqbollari, bir fazali va uchfazali elektr zanjirlari va qurilmalari, shuningdek elektr mashinalari va elektr inshootlari ishlash tamoyillarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Ilmiylik tamoyili asosida multimediali o'rgatuvchi majmua uchun o'quv materialini tanlash, amaliyot organlarida kataloglar, arxivlar va axborot shakllari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish; kartotekalarni tuzish, annotatsiyalar, blok-sxemalar, o'quv-ishlab chiqarish loyixalarni tuzish, chizmalar, diagrammalar va grafiklarni yasash, taqdimotlar tayyorlashga imkon beradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ilmiylik, komponentlik va uyg'unlik tamoyillari asosida tanlangan o'quv materiallari asosida hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi fani bo'yicha yaratilgan multimediali o'rgatuvchi majmuaning afzalliklari quyidagilardan iborat.

- mashg'ulotlarda berilayotgan o'quv materiallarining amaliyot organlari tomonidan chuqur va muammoli tarzda o'rganilishni ta'minlash;

- mashg'ulot jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi evaziga vaqtni tejash imkoniyati;

- o'zlashtirilgan bilimlarning ta'lim oluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.Raximova va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish, Toshkent O'zbekiston nashryoti, 2013 y.
2. O. Yuldoshev va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish, Toshkent Mehnat, 2001 y.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: pedagogik yo'nalish va mutaxassisliklarda tahsil olayotgan bakalavrlar uchun o'quv qo'llanma Muallif-tuzuvchi: O.I. Mezentseva; ostida. ed. E.V. Kuznetsova; Kuib. Fil. Novosib. davlat ped. un-ta. – Novosibirsk: Nemo Press MChJ, 2018. – 140 b.
4. Pedagogik texnologiya asoslari (Xalq-ta'limi xodimlari uchun o'quv qo'llanma). Tuzuvchilar: J.V.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. www.ziyouz.com kutubxonasi 7- bet
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2012. – 169-bet.
6. O'zbekiston aloka va axborotlashtirish agentligi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. "Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar" bo'yicha O'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: Ahmadaliev A.M. prof., Qosimov A. X. 42-46 betlar
7. R.Ishmuhammedov, M.Yuldoshev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma). Toshkent 2013 yil, 3-bet